

## AUTIZM SPEKTR BUZILISHI: ETIOLOGIK OMILLAR, KLINIK BELGILAR VA KORREKSION-PEDAGOGIK YONDASHUVLAR

*Faxriddinova Nargiza Husniddinovna*

*O‘zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti Ped Psixologiya va Inkulziv ta’lim  
fakulteti Logopediya yo‘nalishi talabasi*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada autizm spektr buzilishi (ASB) bo‘lgan shaxslarning neyro-psixologik rivojlanish xususiyatlari, zamonaviy ilmiy qarashlar asosida etiologik omillar hamda korreksion pedagogikaning samarali metodologiyalari tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi ASBli shaxslarning ijtimoiy moslashuvi jarayonida “neyro-xilma-xillik” (neurodiversity) paradigmasining ahamiyatini ilmiy asoslab berishdan iborat.

**Kalit so‘zlar:** autizm spektr buzilishi, neyro-xilma-xillik, amaliy xulq-tahlili (ABA), ijtimoiy integratsiya, sensor integratsiya, pedagogik korreksiya, neyro-psixologik rivojlanish.

### Kirish

Autizm spektr buzilishi (ASB) zamonaviy tibbiyot, psixologiya va maxsus pedagogikaning eng dolzarb muammolaridan biri bo‘lib, u shaxsning ijtimoiy muloqot, kommunikativ ko‘nikmalar hamda xulq-atvor sohasidagi o‘ziga xos rivojlanish holati bilan tavsiflanadi. So‘nggi yillarda mazkur tashxis bilan qayd etilgan bolalar sonining o‘shish dinamikasi ushbu holatni ilmiy-amaliy jihatdan chuqur o‘rganish zaruratini yanada kuchaytirmoqda.

Global statistika shuni ko‘rsatadiki, autizm spektr buzilishi dunyo miqyosida sog‘liqni saqlash va ta’lim tizimining murakkab vazifalaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Xususan, AQSh Kasalliklarni nazorat qilish va oldini olish markazi (CDC) 2024-yilgi ma’lumotlariga ko‘ra, taxminan har 36 nafar 8 yoshli boladan birida ASB aniqlangan bo‘lsa, Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (WHO) global o‘rtacha ko‘rsatkichni har 100 nafar boladan birida deb baholaydi. Ushbu statistik ma’lumotlar ASBni erta tashxislash, samarali korreksion yordamni tashkil etish va inklyuziv ta’lim tizimini rivojlantirishning strategik ahamiyatini belgilab beradi.

Tarixiy nuqtai nazardan, autizm tushunchasi XX asrning o‘rtalarida L.Kanner va X.Asperger tadqiqotlari orqali ilmiy muomalaga kiritilgan. Bugungi kunda ushbu

holat “neyro-xilma-xillik” (neurodiversity) konsepsiyasi doirasida ham talqin qilinib, ASB faqat patologik jarayon emas, balki miya rivojlanishining o‘ziga xos neyro-psixologik shakli sifatida baholanmoqda.

Mazkur maqolaning maqsadi autizm spektr buzilishining etiologik omillari, klinik belgilari hamda zamonaviy korreksion-pedagogik yordam texnologiyalarini ilmiy adabiyotlar tahlili asosida yoritishdan iborat. Tadqiqot doirasida autizmlı shaxslarning ijtimoiy moslashuvi hamda inklyuziv ta’lim sharoitida samarali pedagogik strategiyalarni ishlab chiqish vazifalari belgilandi.

### **Tadqiqot metodologiyasi**

Ushbu maqolani tayyorlash jarayonida tizimli tahlil, qiyosiy-tahliliy hamda nazariy umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot doirasida autizm spektr buzilishiga oid mahalliy va xorijiy ilmiy adabiyotlar, xalqaro tashkilotlarning rasmiy hisobotlari hamda zamonaviy psixologik-pedagogik izlanishlar tahlil qilindi. Nazariy tahlil orqali ASB etiologiyasi va klinik namoyon bo‘lish shakllari o‘rganilgan bo‘lsa, qiyosiy tahlil usuli orqali ABA-terapiya, TEACCH, DIR/Floortime, PECS hamda sensor integratsiya kabi korreksion metodologiyalarning samaradorlik darajasi baholandi. Tizimli yondashuv esa autizm spektr buzilishi bo‘lgan bolalarni qo‘llab-quvvatlashda pedagog, psixolog, logoped, defektolog va ota-onalar o‘rtasidagi integratsiyalashgan hamkorlik mexanizmlarini yoritishga xizmat qildi.

**ASB: Tushuncha va klinik mohiyati.** Ushbu global statistik ma’lumotlar va neyro-rivojlanishdagi o‘zgarishlar fonida, autizm spektr buzilishining mohiyatini ilmiy nuqtai nazardan tushunish zarurati yuzaga keladi. Autizm spektr buzilishi (ASB) shaxsning ijtimoiy muloqot, kommunikativ faoliyat hamda xulq-atvor sohasidagi o‘ziga xos neyrorivojlanish buzilishi hisoblanadi. “Spektr” atamasi holatning klinik ko‘rinishlari, namoyon bo‘lish darajasi va individual xususiyatlarning har bir shaxsda turlicha kechishini anglatadi. Xususan, ayrim holatlarda faqat ijtimoiy muloqotdagi qiyinchiliklar kuzatilsa, boshqalarida nutqiy rivojlanishning sezilarli kechikishi, kognitiv jarayonlardagi o‘zgarishlar yoki stereotipik xulq-atvor shakllari ustunlik qilishi mumkin.

**ASB: Klinik mezonlar va etiologik yondashuv.** Amerika Psixiatriya Assotsiatsiyasining DSM-5 tasnifiga ko‘ra, ASB ijtimoiy kommunikatsiya va ijtimoiy o‘zaro ta’sirdagi barqaror defitsit hamda cheklangan, takrorlanuvchi xulq-atvor namunalari bilan tavsiflanadi. Mazkur buzilish odatda bolaning hayotining

dastlabki uch yili davomida klinik namoyon bo‘lib, rivojlanish dinamikasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

ASBning klinik ko‘rinishlarini tushunish uchun avvalo uning shakllanishiga olib keluvchi etiologik va patogenetik omillarni tahlil qilish maqsadga muvofiqdir. Zamonaviy ilmiy tadqiqotlar autizm spektr buzilishining yagona etiopatogenetik omilini aniqlamagan bo‘lib, bugungi kunda ASB kelib chiqishini izohlashda multifaktorial (ko‘p omilli) model eng maqbul yondashuv sifatida e’tirof etiladi. Ushbu model genetik, biologik va atrof-muhit omillarining kompleks o‘zaro ta’sirini nazarda tutadi.

### **ASB etiologiyasi va klinik namoyon bo‘lish shakllari**

ASBning shakllanishida genetik, biologik va atrof-muhit omillarining multifaktorial o‘zaro ta’siri hal qiluvchi ahamiyatga ega. Etiologik omillar quyidagilarda o‘z aksini topadi:

- **Genetik moyillik:** Ilmiy dalillar ASBning yuqori irsiy xususiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi. Bir qator genetik mutatsiyalar va polimorfizmlar miya rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatib, ASB yuzaga kelish ehtimolini oshiradi.

- **Neyro-anatomik va funksional o‘zgarishlar:** ASBli shaxslarda ijtimoiy idrok, emotsional regulyatsiya va axborotni qayta ishlashga mas’ul bo‘lgan miya hududlarining neyro-anatomik hamda funksional tashkil etilishida o‘ziga xos farqlar kuzatiladi.

- **Prenatal va perinatal omillar:** Homiladorlik davridagi virusli infeksiyalar, dori vositalarining ta’siri, maternal stress, ekologik omillar, shuningdek, perinatal asoratlar (erta tug‘ilish, gipoksiya, past tana vazni) nerv tizimi rivojlanishiga salbiy ta’sir etuvchi xavf omillari sifatida baholanadi.

- **Sensorli disfunksiya:** ASBli bolalarda atrof-muhitdan kelayotgan sensor stimullarni (tovush, yorug‘lik, hid, taktil ta’sirlar) qabul qilish va qayta ishlash jarayonidagi atipiklik ularning xulq-atvor reaksiyalarida sezilarli tafovutlarni keltirib chiqaradi.

Etiologik omillarning murakkabligi ASBning klinik belgilarida o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘ladi. Klinik manzaraning asosiy komponentlari:

1. **Ijtimoiy-kommunikativ defitsit:** Ijtimoiy o‘zaro ta’sirda qiyinchiliklar, ko‘z bilan aloqa o‘rnatishdagi cheklovlar, ismga javob bermaslik va tengdoshlari bilan o‘yin faoliyatiga nisbatan sust qiziqish.

2. **Nutq va kommunikativ o‘ziga xosliklar:** Nutq rivojlanishining kechikishi, ekolaliya (so‘z va iboralarni takrorlash), noverbal muloqot vositalari (mimika, imo-ishora)dan foydalanish ko‘nikmalarining cheklanganligi.

3. **Takrorlanuvchi xulq-atvor va cheklangan qiziqishlar:** Stereotipik harakatlar (qo‘l silkitish, aylanish), buyumlarni ma‘lum tartibda joylashtirishga intilish va kundalik tartibning o‘zgarishiga nisbatan o‘ta sezgirlik.

4. **Sensor profilning atipikligi:** Sensor ta’sirlarga (tovush, yorug‘lik, teginish) nisbatan gipersensitivlik (o‘ta sezgirlik) yoki giposensitivlik (sezgirlikning pastligi).

### **Korreksion-pedagogik yordamning strategik ahamiyati**

Erta tashxis qo‘yish va mutaxassislar tomonidan kompleks baholash orqali individual korreksion dasturlarni ishlab chiqish bolaning rivojlanish salohiyatini optimallashtirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. ASB bo‘lgan bolalar bilan ishlashda korreksion-pedagogik yordam individual ehtiyojlar, rivojlanish darajasi va psixologik profilni hisobga olgan holda kompleks tashkil etiladi. Korreksion jarayonning strategik maqsadi bolaning kommunikativ, ijtimoiy, kognitiv va mustaqil hayot ko‘nikmalarini rivojlantirish hamda uning ijtimoiy integratsiyasini ta’minlashdan iborat.

### **Zamonaviy korreksion-pedagogik metodologiyalar**

Tadqiqot doirasida ASB bo‘lgan bolalar bilan ishlashda yuqori samaradorlik ko‘rsatuvchi quyidagi metodologik yondashuvlar tahlil qilindi:

**Amaliy xulq-tahlili (ABA-terapiya):** Xulq-atvorni modifikatsiyalash va ijobiy mustahkamlash tamoyillariga asoslangan ilmiy tasdiqlangan metod. Unda murakkab ko‘nikmalar kichik bosqichlarga (task analysis) ajratilib, tizimli ravishda o‘rgatiladi.

**TEACCH dasturi:** Vizual tuzilmalashtirish (structured teaching) va aniq kun tartibiga asoslangan yondashuv. Metod bolaga topshiriqlarni mustaqil bajarish va kundalik faoliyatini rejalashtirishda yordam beradi.

**Muqobil va qo‘shimcha muloqot tizimi (PECS):** Nutq imkoniyati cheklangan shaxslar uchun vizual kartochkalar yordamida muloqotni shakllantiruvchi vosita. U kommunikativ frustratsiyani kamaytirish va ijtimoiy faollikni oshirishga xizmat qiladi.

**Sensor integratsiya terapiyasi:** Sensor stimullarni qabul qilish va qayta ishlashdagi atipiklikni bartaraf etishga yo‘naltirilgan. Taktil, vestibulyar va

proprioseptiv tizimlar faoliyatini muvofiqlashtirish orqali atrof-muhitga moslashuv yaxshilanadi.

**DIR/Floortime yondashuvi:** Bolaning hissiy-emotsional rivojlanishi va ijtimoiy aloqalarini o‘yin faoliyati orqali boyituvchi yondashuv. Unda mutaxassis yoki ota-ona bolaning tashabbusiga tayanib, o‘zaro hissiy bog‘liqlik o‘rnatadi.

**Logopedik va defektologik yordam:** Nutqiy ko‘nikmalarni shakllantirish, talaffuzni korreksiya qilish va kognitiv jarayonlarni (diqqat, xotira, tafakkur) rivojlantirishga qaratilgan individual mashg‘ulotlar.

**Oila va ta‘lim muassasasi hamkorligi.** ASB bo‘lgan bolalar bilan olib boriladigan korreksion ishlar samaradorligi ota-onalarning reabilitatsiya jarayoniga faol jalb etilishiga bevosita bog‘liq. Ota-onalarni psixologik-pedagogik jihatdan qo‘llab-quvvatlash va ularga uy sharoitida korreksion metodlardan foydalanish bo‘yicha ko‘nikmalarni berish bolaning rivojlanishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Xususan, maktabgacha yosh davridagi erta aralashuv bolaning keyingi akademik muvaffaqiyati va jamiyatdagi ijtimoiy statusi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega.

**Metodologik tahlil va korreksion yondashuvlar integratsiyasi.** ASBli bolalar bilan ishlashda kompleks, ko‘p qirrali yondashuvni tatbiq etish hamda mutaxassislar va oila o‘rtasidagi uzviy hamkorlikni ta‘minlash rivojlanish salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarishning yagona ilmiy-amaliy strategiyasidir. Turli xil metodologik yondashuvlarning samaradorligini ob‘ektiv baholash uchun ularning imkoniyatlari va cheklovlarini qiyosiy tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

ASB bo‘lgan shaxslar bilan ishlashda yagona universal korreksion metod mavjud emas. Zamonaviy ilmiy qarashlar bolaning individual rivojlanish profilini hisobga olgan holda kompleks yondashuvni qo‘llash zarurligini ta‘kidlaydi. Metodologik tahlil shuni ko‘rsatadiki, har bir yondashuv o‘ziga xos funksional maqsadlarga ega (1-jadval):

**1-jadval. ASBda qo‘llaniladigan korreksion metodlarning qiyosiy tavsifi**

| Metod | Asosiy maqsadi              | Qo‘llanilish sohasi      | Asosiy afzalligi     |
|-------|-----------------------------|--------------------------|----------------------|
| ABA   | Xulq-atvorni shakllantirish | Ta‘lim va reabilitatsiya | Ilmiy asoslanganligi |

|                      |                              |                                   |                                        |
|----------------------|------------------------------|-----------------------------------|----------------------------------------|
| <b>PECS</b>          | Muqobil kommunikatsiya       | Nutqiy rivojlanishdagi cheklovlar | Muloqot imkoniyati                     |
| <b>TEACCH</b>        | Ta’limni strukturalashtirish | Ta’lim muassasalari               | Vizual tuzilmalashtirish               |
| <b>DIR/Floortime</b> | Hissiy-ijtimoiy rivojlanish  | Oilaviy va individual muhit       | Emotsional bog‘liqlik                  |
| <b>Sensor int.</b>   | Sensor moslashuv             | Reabilitatsiya markazlari         | Sensor sezuvchanlikni me'yorlashtirish |

*Eslatma: Jadval tahlili shuni tasdiqlaydiki, metodlarni bolaning yoshi, kognitiv rivojlanish darajasi va oilaviy sharoitiga mos ravishda integratsiyalash korreksion ishlar samaradorligini ta’minlashning eng maqbul strategiyasidir.*

**ASB bo‘lgan bolalarning inklyuziv ta’limga integratsiyasi.** Korreksion metodlarning samarali uyg‘unlashuvi nafaqat individual reabilitatsiya jarayonida, balki autizimli bolalarning inklyuziv ta’lim muhitiga integratsiyasida ham hal qiluvchi rol o‘ynaydi. ASB bo‘lgan bolalarning umumta’lim muassasalariga muvaffaqiyatli integratsiyasi inklyuziv ta’limning ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Ushbu jarayon bolaning individual imkoniyatlari va ehtiyojlaridan qat’i nazar, teng ta’lim olish huquqini ta’minlashni ko‘zda tutadi.

**Inklyuziv muhitni tashkil etishning asosiy komponentlari.** Inklyuziv ta’lim sharoitida ASBli bolalarning ijtimoiy-pedagogik integratsiyasini ta’minlash uchun quyidagi komponentlar hal qiluvchi ahamiyatga ega:

**Individual ta’lim dasturi (ITD):** Bolaning kognitiv rivojlanishi, kommunikativ ko‘nikmalari va ijtimoiy moslashuviga yo‘naltirilgan shaxsga yo‘naltirilgan dastur.

**Multidissiplinar hamkorlik:** Sinf rahbari, fan o‘qituvchilari, psixolog, logoped va defektologlarning uzviy hamkorligi orqali bolaning rivojlanish dinamikasini muntazam kuzatib borish.

**Tutorlik instituti:** Pedagog-yordamchi (tutor) ishtiroki bolaga topshiriqlarni o‘zlashtirish, sinf qoidalariga rioya qilish va tengdoshlari bilan ijtimoiy aloqalarni o‘rnatishda ko‘maklashadi.

**Vizual vositalar va muhit:** Vizual jadvallar va piktogrammalardan foydalanish, shuningdek, sinf muhitini strukturalashtirish bolaning xavfsizlik hissini oshiradi va tashvishlanish darajasini pasaytiradi.

**Ijtimoiy-kommunikativ treninglar:** Tengdoshlar bilan hamkorlikdagi o'yinlar va ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantiruvchi mashg'ulotlar orqali bag'rikenglik muhitini yaratish.

**Oila ishtiroki:** Ota-onalarning ta'lim jarayonidagi faol ishtiroki uy va ta'lim muassasasi o'rtasidagi korreksion metodlar uzviyligini ta'minlaydi.

**Normativ-huquqiy baza va davlat siyosati.** O'zbekiston Respublikasida inklyuziv ta'limni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun hamda 2020–2025-yillarda xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi maxsus ta'lim ehtiyojiga ega bolalarning sifatli ta'lim olish huquqini kafolatlaydi. Ushbu me'yoriy hujjatlar umumta'lim muassasalarida inklyuziv ta'limni bosqichma-bosqich joriy etish, pedagog kadrlar salohiyatini oshirish va maxsus pedagogik xizmatlarni kengaytirishni nazarda tutadi.

### **Xulosa**

Mazkur tadqiqot autizm spektr buzilishining (ASB) etiologik asoslari, klinik namoyon bo'lish shakllari hamda zamonaviy korreksion-pedagogik yondashuvlarning tahliliga bag'ishlandi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, ASB insonning ijtimoiy-kommunikativ faoliyati va xulq-atvoriga ta'sir etuvchi murakkab neyrorivojlanish holati bo'lib, uning shakllanishida genetik, biologik va atrof-muhit omillarining multifaktorial o'zaro ta'siri hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Amaliy tahlillar shuni ko'rsatadiki, ABA-terapiya, PECS tizimi, sensor integratsiya, TEACCH va DIR/Floortime kabi zamonaviy korreksion metodlar bolaning kognitiv va ijtimoiy salohiyatini rivojlantirishda yuqori samaradorlik ko'rsatadi. Bunda korreksion-pedagogik yordamning muvaffaqiyati mutaxassislar va oila o'rtasidagi uzviy hamkorlik hamda ta'lim jarayonining multidissiplinar yondashuv asosida tashkil etilishiga bevosita bog'liq.

Xulosa qilib aytganda, ASBli bolalarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash tizimini rivojlantirish uchun erta diagnostika, ilmiy asoslangan korreksion texnologiyalar hamda inklyuziv ta'lim tamoyillarini izchil tatbiq etish zarur. Kelgusidagi ilmiy izlanishlar korreksion metodlarning samaradorligini oshirish va

ASBli shaxslarning jamiyatdagi hayot sifatini yaxshilashga qaratilgan innovatsion pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqishga xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Kanner L. Autistic Disturbances of Affective Contact // Nervous Child. – 1943. – №2. – P. 217–250.
2. American Psychiatric Association. Diagnostic and Statistical Manual of Mental Disorders (DSM-5). – 5th ed. – Washington, DC: American Psychiatric Publishing, 2013.
3. World Health Organization. Autism spectrum disorders. – Geneva: WHO, 2023. – [Elektron resurs]. – URL: <https://www.who.int/news-room/fact-sheets/detail/autism-spectrum-disorders>.
4. Frith U. Autism: Explaining the Enigma. – 2nd ed. – Oxford: Blackwell Publishing, 2003.
5. O‘zbekiston Respublikasi. "Ta'lim to'g'risida"gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni (O‘RQ-637-son, 23.09.2020).
6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaror (12.10.2021, 638-son).

Research Science and  
Innovation House

